XALQ DEPUTATLARI BO‘STON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 12-avgust VII-24-81-1-19-K/26 Bo‘ston tumani

Bo‘ston tumani markaziy ko‘chalari bo‘yida joylashgan tadbirkorlik subyektlariga chiqindilarni olib chiqish hamda hududlarni obodonlashtirish xizmatlari uchun tariflarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–387-son qarorining 8-bandiga muvofiq hamda Bo‘ston tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlari bo‘yicha iqtisodiy asoslangan tarif hisob-kitoblarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Bo‘ston tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yida joylashgan tadbirkorlik subyektlariga shartnoma asosida ko‘rsatiladigan chiqindilarni olib chiqish hamda hududlarni obodonlashtirish xizmatlari uchun tariflar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki:

– tariflar Obodonlashtirish boshqarmasi va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida tuziladigan shartnomalar asosida qo‘llaniladi;

– xizmatlar hajmi amalda bajarilgan ishlar bo‘yicha aniqlanadi;

– hisob-kitoblar amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Bo‘ston tumani hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari-Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i X.Norboyevga:

– tuman markaziy ko‘chalari bo‘yida joylashgan tadbirkorlik subyektlari bilan chiqindilarni olib chiqish hamda hududlarni obodonlashtirish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar tuzilishini tashkil etish;

– xizmatlarni tasdiqlangan tariflar asosida ko‘rsatish, chiqindilarni belgilangan grafik asosida olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish ishlarini sifatli amalga oshirishni ta’minlash;

– ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, hisob-kitoblar va tushumlarning shaffof yuritilishini ta’minlash;

– xizmatlar ko‘rsatish jarayonida sanitariya-ekologik talablar hamda amaldagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta’minlash;

– mazkur qaror ijrosini muvofiqlashtirish, tariflarning qo‘llanilishi va xizmatlar sifati yuzasidan monitoring olib borish;

– zarurat tug‘ilganda xizmatlar uchun belgilangan tariflarni qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha asoslantirilgan takliflarni xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashiga kiritish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash Bo‘ston tumani hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari-Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i X.Norboyevga, nazorat qilish xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Mamarizayev) hamda Kengash kotibiyati zimmasiga yuklansin.

5. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

Kengash raisi **TUYCHIYEVA MATLUBAXON KAMOLDINOVNA**

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani
Kengashining
2026-yil 12-avgustdagi
VII-24-81-1-19-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Bo‘ston tumani markaziy ko‘chalari bo‘yida joylashgan tadbirkorlik subyektlariga chiqindilarni olib chiqish hamda hududlarni obodonlashtirish xizmatlari uchun tariflar

Xizmat turi	O‘lchov birligi	QQSsiz	QQS bilan
Chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmati	1 m³	65 000 so‘m	72 800 so‘m

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani
Kengashining
2026-yil 12-avgustdagi
VII-24-81-1-19-K/26 -son qaroriga
2-ilova

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: LW24822295

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH QO‘MITASINING ANDIJON VILOYATI HUDUDIY BOSHQARMASI

COMPETITION PROMOTION AND CONSUMER PROTECTION COMMITTEE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ANDIJAN REGIONAL DEPARTMENT

170100, Andijon sh., Cho'lpon shox ko'chasi, 36-A uy, Tel.: (74) 223-57-00, Tel.: (74) 225-14-71
mail: an@antimon.gov.uz, e-xat: antimonandijon@exat.uz, www.antimon.gov.uz

2026-yil 03-avgust № 01-04/617

XALQ DEPUTATLARI BO‘STON TUMAN KENGASHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi **PQ-387-son** qarori ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan Bo‘ston tumani xalq deputatlari Kengashining "Bo‘ston tumani markaziy ko‘chalari bo‘yida joylashgan tadbirkorlik subyektlariga chiqindilarni olib chiqish hamda hududlarni obodonlashtirish xizmatlari uchun tariflarni tasdiqlash to‘g‘risida"gi qaror loyihasi O‘zbekiston Respublikasining **"Raqobat to‘g‘risida"gi Qonuni** talablari nuqtai nazaridan o‘rganib chiqildi.

O‘rganish natijasida qaror loyihasida obodonlashtirish xizmatlari uchun tariflarni tasdiqlash nazarda tutilgan bo‘lib, loyiha mazmunida ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarga asossiz ustunlik berish, tovar yoki xizmat bozoriga kirishni cheklash, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni bozordan chiqarib yuborish yoki boshqa raqobatni cheklovchi normalar bevosita nazarda tutilmaganligi aniqlandi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining **"Raqobat to‘g‘risida"gi Qonunining 22-moddasi** talablariga muvofiq, davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar tovar yoki moliya bozorida raqobatni cheklashga hamda iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitishga olib kelmasligi lozim.

Shu munosabat bilan qaror loyihasini qabul qilishda:

- tasdiqlanayotgan tariflarning iqtisodiy jihatdan asoslanganligi;
- tariflarning barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan teng va kamsitilmaydigan tartibda qo‘llanilishi;
- qaror natijasida ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarga asossiz afzallik yoki eksklyuziv huquqlar berilmasligi;
- boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mazkur xizmatlar bozoriga kirishini cheklovchi shartlar yuzaga kelmasligi ta'minlanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mazkur qaror loyihasi amaldagi tahririda O‘zbekiston Respublikasining **"Raqobat to‘g‘risida"gi Qonuni 22-moddasi** talablariga bevosita zid normalarni o‘z ichiga olmaydi.

Boshqarma boshlig‘i **A.Matmusayev**

Ijrochi: M.Abdullayev
Tel: 74-223-57-00